



# **ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИ: ХАЛҚ ЖАСОРАТИ ВА ТАРИХ САБОҚЛАРИ**

**Халқаро илмий-амалий онлайн конференция материаллари  
2020 йил 27 май**

## **ВТОРАЯ МИРОВАЯ ВОЙНА: ПОДВИГ НАРОДА И УРОКИ ИСТОРИИ**

**материалы Международной научно-практической онлайн конференции  
27 мая 2020 года**

## **WORLD WAR II: HEROISM OF THE PEOPLE AND LESSONS OF HISTORY**

**materials of the International Scientific and Practical Online Conference  
may 27, 2020**

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС  
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**РЕСПУБЛИКА МАЪНАВИЯТ ВА МАЪРИФАТ МАРКАЗИ**

**ЎЗБЕКИСТОН ХОТИН-ҚИЗЛАР “ОЛИМА” УЮШМАСИ**

**ҚАРШИ МУҲАНДИСЛИК-ИҚТИСОДИЁТ ИНСТИТУТИ**

**ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИ: ХАЛҚ ЖАСОРАТИ ВА  
ТАРИХ САБОҚЛАРИ**

**Халқаро илмий-амалий онлайн конференция  
материаллари  
2020 йил 27 май**

**ВТОРАЯ МИРОВАЯ ВОЙНА: ПОДВИГ НАРОДА И  
УРОКИ ИСТОРИИ**

**материалы Международной научно-практической онлайн  
конференции  
27 мая 2020 года**

**WORLD WAR II: HEROISM OF THE PEOPLE AND  
LESSONS OF HISTORY**

**materials of the International Scientific and Practical Online  
Conference  
may 27, 2020**

**Қарши-2020**

**~ 1 ~**

Ушбу тўпламда Иккинчи жаҳон урушида қозонилган ғалабанинг 75-йиллиги муносабати билан ўтказилган конференция материаллари ўз аксини топган. Иккинчи жаҳон уруши йиллари тарихини ўрганишнинг методологик, манбашунослик ва тарихшунослик муаммолари, уруш йилларида ўзбекистонликларнинг фронтда кўрсатган қаҳрамонликлари, ўзбекистонликларнинг фронт ортидаги жасоратлари, урушнинг экстремал шароитида илм-фан, маданият, таълим-тарбия, саноат, соғлиқни сақлаш, қишлоқ хўжалиги ва бошқа соҳаларга доир масалалар қамраб олинган.

Ушбу тўплам кенг жамоатчилик, давр тарихи билан кизиқувчилар, тарихчилар ва талаба ёшларга мўлжалланган.

В сборнике отражены материалы конференции, посвященной 75-летию победы во Второй мировой войне. Раскрыты методологические, источниковедческие и историографические проблемы изучения истории Второй мировой войны, героизм и мужество узбекистанцев на фронте во время войны, самоотверженный труд и подвиг узбекского народа в тылу, а также освещаются вопросы развития науки, культуры, образования, промышленности, здравоохранения, сельского хозяйства и других отраслей в экстремальных условиях войны.

Этот сборник предназначен для широкой публики, а также для тех, кто интересуется историей данного периода, историков, студентов.

### **Масъул муҳаррир:**

**Эргашева Ю.А.-т.ф.д., профессор, Қашқадарё вилояти  
“Олима” уюшмаси раиси**

### **Таҳрир ҳайъати ва аъзолари:**

**проф.Р.Х.Муртазаева  
проф.З.Р.Ишанходжаева  
доц.Д.И.Васиева  
доц.С.Б.Муртазова  
доц.в.б.Ж.С.Эштемиров  
доц.в.б.Ш.Т.Боймуродов**

Мазкур тўплам Қарши муҳандислик-иқтисодиёт институти Илмий Кенгашининг 2020 йил 28 майдаги № 8 - сонли қарори билан нашрга тавсия қилинди.

**Тўпламга киритилган маълумотларнинг тўғрилиги, стилистик бехатолиги  
учун муаллифлар масъулдир.**

братских государств – Беларуси и Узбекистана. Именно в рамках такого подхода был создан Постановлением Президента Республики Узбекистан совместный Белорусско-Узбекский межотраслевой институт прикладных технических квалификаций в городе Ташкенте[6] – уникальное высшее образовательное учреждение, аккумулирующее лучшие международные компетенции технического образования, а также международные образовательные программы по востребованным экономикой направлениям инновационного развития, в том числе между БНТУ и с Каршинским инженерно-экономическим институтом. Таким образом, накопленный советский опыт интернационализации высшей школы получает новое качество и развитие.

#### **Литература:**

1. Амелин: в годы ВОВ Узбекистан спас весь цвет научной интеллигенции СССР. - Режим доступа: <https://uz.sputniknews.ru/culture/20190927/12508784/Uzbekistan-spas-ves-tsvet-nauchnoy-intelligentsii-SSSR.html>. – Дата доступа: 25.05.2020.
2. Корзенко Г.В., Шевчук И.И. Наука и ученые Беларуси в годы великой отечественной войны. Историография//Материалы Межд. научно-практ. конф., посвященной 70-летию Победы в Великой отечественной войне и окончанию Второй мировой войны. В 2ч. Ч. 1. – Минск: Беларуская навука, 2016.
3. Ганчеренок И.И. Проблема профессионализации управления в высшей школе// Высшэйшая школа. –2004, № 2. –С. 57-60.
4. Ганчеренок И.И. Кафедра управления высшей школы (информационное издание). – Минск: РИВШ при БГУ, 1997. – 23 с.
5. Инженеры, призванные строить, должны были разрушать... История БНТУ в годы Великой Отечественной войны. – Режим доступа:<https://times.bntu.by/allevnts/7049-inzhenery-prizvannye-stroit>. – Дата доступа: 25.05.2020.
6. О создании Белорусско-Узбекского института [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://uzbekistan.mfa.gov.by/ru/embassy/news/d214e0874bb437e7.html>. – Дата доступа: 20.05.2020

#### **XX ASRNING 20-40 -YILLARIDA O‘ZBEKISTONDA ALOQA TIZIMI: RIVOJLANSIH ISTIQBOLLARI VA MUAMMOLAR**

***X.B.Babadjanov – доц.в.б., PhD, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent  
Axborot Texnologiyalari Universiteti  
E-mail: [bhasanb@inbox.ru](mailto:bhasanb@inbox.ru),  
Тел: 909509363***

***Annotasiya:*** Ushbu maqolada XX asrning 20-yillaridan boshlab to 40-yillari o`rtalarigacha O`zbekistonda aloqa tizimi rivojlanishi ko`rsatilib beriladi. Maqolada asosiy e`tibor Ikkinchi jahon urushi yillarida respublika aloqa tizimining urush talablari asosida ishni tashkil etishi, ichki va respublikalararo yangi aloqa liniyalarining o`rnatilishi hamda O`zbekiston aloqachilarining frontni aloqa vositalari bilan ta`minlashdagi salmoqli mehnat faoliyati tahliliga qaratilgan.

***Kalit so`zlar:*** aloqa tizimi, Ikkinchi jahon urushi, front ta`minoti.

***Аннотация:*** В данной статье описывается развития системы связи в Узбекистане с 20-х годов XX века до середины 1940-х годов. В статье особое

внимание уделяется организации системы связи республики в соответствии с требованиями военного времени, установлению новых внутренних и межреспубликанских линий связи, а также значительной работе связистов Узбекистана по обеспечению фронта средствами связи в годы Второй мировой войны.

**Ключевые слова:** система связи, Вторая мировая война, снабжения фронта.

**Abstract:** In this article is described the development of the communication system in Uzbekistan from the 20s of the 20th century to the mid-1940s. The article pays special attention to the organization of the republic's communications system in accordance with the requirements of wartime, the establishment of new internal and inter-republican communications lines, as well as the significant work of Uzbek signalmen in providing the front with communications during the Second World War.

**Key words:** communication system, World War II, supply of front.

Oʻrta Osiyo hududida aloqa tizimining tashkil topishi va rivojlanishi bir necha asrlik tarixga ega. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Oʻrta Osiyo hududida tashkil topgan davlatlarda aloqa tizimiga alohida eʼtibor berilib, bu sohani tartibli saqlash va rivojlantirishga yetarli mablagʻlar yoʻnaltirilgan. Ayniqsa, Somoniylar, Saljuqiylar va Temuriylar davrida faoliyat yuritgan aloqa tizimi oʻz davrida mukammalligi bilan ajralib turgan. XIX asrdan boshlab Turkistonda yangi aloqa vositalari hisoblangan – telefon va telegraf kirib kela boshladi. XX asrning 20-yillaridan boshlab esa aloqa sohasida texnik rivojlanish jadallashib ketdi.

Oʻzbekistonda shaharlararo telefon aloqasi xizmatlari 1924- yildan boshlanib, oʻsha vaqtda Toshkent va Samarqand shaharlari oʻrtasida birinchi havo aloqa liniyasi ishga tushirildi. Telefonlashtirish sohasida boʻlayotgan sezilarli va ahamiyatli oʻzgarishlar, muvaffiqiyatlar 1926- yilda Toshkent-Samarqand, Samarqand-Dogʻbit-Kattaqoʻrgʻon oraligʻidagi aloqa liniyalarining ekspluatatsiyaga qabul qilish hamda shaharlararo simlar va shahar telefon tarmogʻiga oʻrnatilgan uskunalarni, aloqa vositalari va telefon simlarini joriy taʼminlash boʻyicha olib borilayotgan ishlar natijasida boʻldi.

1930- yilda Toshkent-Andijon shaharlari oʻrtasida bimetall zanjir bilan shaharlararo aloqa xizmati tashkil etilib, mazkur liniyalar orqali Toshkent shahrini Qoʻqon va Fargʻona shaharlari bilan ham aloqa oʻrnatishi yoʻlga qoʻyildi. Shuningdek, Toshkent shahri bitta kanal orqali Samarqand shahri bilan shaharlararo soʻzlashuv imkoniyatiga, Andijon, Fargʻona va Qoʻqon shaharlari bilan esa jadval asosida aloqa qilish imkoniyatiga ega boʻldi. Bundan tashqari, Toshkentning oʻziga yaqin Pskent, Toʻytepa, Oqqoʻrgʻon, Ordjonikidze (Qibray) tumanlari bilan aloqa oʻrnatishi boʻyicha ham kerakli ishlar olib borildi.

1930-1931- yillarda Pstdargʻom, Narpay, Bulungʻur, Angren, Xatirchi, Buvayda, Mangʻit va boshqa tuman markazlari bilan aloqa oʻrnatish maqsadida, havo telefon-telegraf liniyalari qurildi. Umuman olganda, aloqa sohasida simlardan foydalanish miqdori 24%ga, kabellardan foydalanish esa 65% oshdi.

Shahar telefon tarmogʻining keskin rivojlanishi qoʻl bilan boshqariladigan telefon stansiyalarni avtomatik telefon stansiyalarga almashtirish zaruratini koʻrsatdi. 1932- yil 8-sentabr kuni Toshkent shahrida 5000 nomerli “Eriksson” nomli shved firmasi tomonidan ishlab chiqarilgan va mashina tizimi bilan ishlaydigan birinchi avtomatik telefon stansiya ATS-3 ishga tushirildi. Ushbu avtomatik telefonstansiya deyarli 30- yillar davomida Toshkentda yakka ATS timsolida ishladi va keyinchalik davr talabiga muvofiq, uning umumiy sigʻimi 10 000 nomergacha yetkazildi.

Shu bilan bir qatorda, 1932- yilda Moskva-Toshkent yoʻnalishi boʻyicha shaharlararo magistral liniyasining qurilishi boshlanib, ushbu ishlar 1939- yilga borib

yakunlandi. Ko‘rilayotgan chora-tadbirlar natijasida, O‘zbekistonda aloqa sohasining jadal rivojlanishiga erishildi. 1935- yilda Shaharlararo Telefon Stansiyasi (MTS) Markaziy Telegraf tassarufidan chiqarilib, unga mustaqil korxonalar maqomi berildi. 1937- yilda O‘zbekiston aloqa boshqarmasi O‘zSSR ning Xalq Komissarligi Ittifoqining vakolatli Aloqa Xalq Komissarligi boshqarmasiga aylantirildi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida yuzaga kelgan vaziyat aloqachilar oldiga murakkab vazifalarni qo‘ydi. Urush sharoitida aloqa tizimining barqaror faoliyatini ta‘minlash zarur edi. Urushgacha bo‘lgan yillarda Respublikada aloqa tizimining rivojlanishi yetarli darajada bo‘lmay, uning moddiy-texnik bazasi qoloq holatda edi. Urushgacha mavjud aloqa tizimining o‘ziga xosligi, uning radial qurilishi edi (magistral, viloyatlar va tumanlararo). Barcha aloqa liniyalari o‘zaro bog‘lanmagan bo‘lib, barcha aloqa Moskva orqali amalga oshirilgan.

Shuning uchun O‘rta Osiyoni markaz bilan bog‘lovchi magistral liniyasining shikastlanishi O‘zbekiston bo‘yicha aloqani to‘xtat qolishiga sabab bo‘lgan. Shuningdek, eskirib qolgan aloqa liniyalari urush davri talablariga mos kelmas edi. Urushga safarbarlik tufayli ko‘plab malakali aloqachilarning o‘rnini malakasiz kadrlar bilan to‘ldirilishi ham aloqa sifatiga salbiy ta‘sir etdi.

Ma‘lumki, Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekistonga 100 dan ortiq korxonalar ko‘chirib keltirildi. Bu korxonalar ishini tashkil etish va jihozlash asosan respublika zimmasiga yuklatildi. Ko‘chirib keltirilgan korxonalar ichida ittifoq ahamiyatiga ega aviasozlik va mashinasozlik korxonalari bor edi. Ularni tarmoq korxonalari va boshqa hududlar bilan aloqasini yo‘lga qo‘yish juda muhim edi. 1941- yil 30- avgustdagi O‘zbekiston SSR Aloqa Xalq Komissarligining qarorida aloqachilarning urush sharoitidagi vazifalari belgilab berdi. Qarorda asosiy e‘tibor front va frontorti hududlarida aloqa tizimini aniq va uzluksiz faoliyatini ta‘minlash va aloqa qurilmalarini harbiy ehtiyojlarga yo‘naltirishga qaratildi. Shuningdek, ushbu qaror vazifalaridan kelib chiqqan holda O‘zbekistonda mavjud aloqa tizimi imkoniyatlaridan to‘laligicha foydalanilib, aloqa tizimini yosh kadrlar bilan ta‘minlashga e‘tibor qaratildi.

O‘zbekistonni Markaz bilan, Respublika rahbariyatini viloyat, shahar, tumanlar, yuzlab sanoat korxonalari bilan aloqasini uzluksiz yo‘lga qo‘yishda yangi liniyalarni barpo etish zarur edi. Urush yillarida Toshkent - Samarqand-Ashxobod, Toshkent - Samarqand - Boku, Toshkent - Samarqand - Krasnovodsk, Toshkent - Samarqand - Buxoro telefon aloqa yo‘llari qurildi. 1943- yilda qurib ishga tushirilgan 500 kilometrlik telefon liniyasi orqali Respublika poytaxtini Xorazm viloyati va Qoraqalpog‘iston bilan bog‘landi. Yirik korxonalarining o‘zlarida ham 50-100 o‘rinli telefon stansiyalari qurildi. Natijada xo‘jaliklarga rahbarlik qilish, ularga o‘z vaqtida ko‘maklashish ishlari yaxshilandi.

Urush yillarida pochta tizimi faoliyatiga ham talab kuchaydi. O‘zbekiston pochta tizimi ko‘chirilgan aholiga xizmat ko‘rsatish va frontga xat, turli posilkalarni tezlikda yetkazib berishi kerak edi. Bu muammolarni hal qilish maqsadida pochta aloqasi bo‘linmalarini malakali kadrlar bilan ta‘minlash, pochta va posilkalarni qayta ishlash bo‘linmalarini ko‘paytirish, armiya shaxsiy tarkibi va ularning oilalari o‘rtasida navbatdan tashqari aloqani tashkil etish va boshqa vazifalar belgilandi.

Urush yillarida respublikada telegraf bo‘linmalari soni ikki barobar qisqargan bo‘lsada, ko‘rilgan choralar tufayli telegraf almashinuvi atigi 7% ga qisqardi. Hukumat organlari qarorlari bilan respublikada telegraf liniyalari sharqiy va janubi-sharqiy yo‘nalishlarda rivojlantirildi. O‘zbekistonda telegraf aloqasining bosh markazi bo‘lgan Toshkent Bosh Telegrafi ham ishini qayta tashkil etdi. Birinchi navbatda o‘zgarishlar front bilan aloqani yo‘lga qo‘yishga yo‘naltirilgan edi. O‘rta Osiyo harbiy okrugini Kavkazorti fronti, shuningdek, Olma-ota va Bosh shtab bilan bog‘lovchi telegraf liniyalari yo‘lga

qo'yildi. Qisqa vaqt oralig'ida (urushgacha yillar bilan solishtirganda) kunlik telegramma almashinuvi 40-45 mingga yetdi.

O'zbekiston aloqachilari bevosita frontni ta'minlashga ham hissa qo'shdilar. 1942-yil yanvarida Toshkentda aloqachilar tomonidan turli aloqa vositalari to'planib, ular asosida avtomashina kuzoviga o'rnatiluvchi RSB tipidagi ko'chma radiostansiyalar tayyorlandi va frontga yuborildi. Ushbu ishlar tashabbuskori mashhur aloqachi A.Ye. Kalyujniy bo'ldi. Radiostansiyalarni remont qilish, yig'ish va montaj qilish ishlariga muhandislardan – P. Loginov, D. Ojeredov, B. Komarov; texnik xodimlardan – P. Silanteyev, O. Pavlenko, M. Babich, Ye. Stepanova va boshqalar ishtirok etdilar. Loyihaga texnik rahbarlikni Aloqa komissarligi boshqarmasi bosh muhandisi V.I. Irushkin amalga oshirdi. 1941-1945-yillarda respublika radiostansiyalari jamoalari radioaloqa va radioeshittirish uskunalarning uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun juda katta hissa qo'shdilar hamda harbiy avtomashinalarni harakatdagi radiostansiyalar bilan ta'minladilar. Shuningdek, Moskva shahrida qurilayotgan katta quvvatli radiostansiyasi qurilishida ishtirok etdilar.

Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekiston aloqachilarining fidokorona mehnati yuqori baholandi. O'zbekiston aloqachilaridan 11 kishi "Hurmat nishoni", 55 kishi "Mehnat a'lochisi" medali hamda 113 kishi O'zbekiston Oliy Soveti Prezidiumi faxriy yo'liqlari bilan taqdirlandilar.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Абдунабиев А. Очерки истории развития связи в Узбекистане – Ташкент: Фан, 1991. – 141 с.
2. Белов А., Зайцев В. Военные связисты в боях за Родину – Москва: Воен. изд-во, 1984. – 255 с.
3. Пересыпкин И. Связисты в годы Великой Отечественной – Москва: Связь, 1972. – 247 с.
4. Резников М. 50 лет советской связи – Москва: Связь, 1967. – 136 с.

### **ФРОНТ ОРТИДАГИ БУЮК ЖАСОРАТНИНГ ТАРИХИЙ- ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ**

**Ф.А.Мухитдинова – ТДЮУ, профессор**

**Тел: 93-509-87-01**

**[feruza.mukhitdinova@gmail.com](mailto:feruza.mukhitdinova@gmail.com)**

**[f.muxitdinova@tsul.uz](mailto:f.muxitdinova@tsul.uz)**

*2020 йилда Иккинчи жаҳон урушида қозонилган Ғалабанинг 75 йиллиги халқаро миқёсда кенг нишонланади. Бизнинг мард, енгилмас ва олижаноб халқимиз буюк Ғалабани таъминлашга беқиёс ҳисса қўшгани билан барчамиз ҳақли равишда фахрланамиз. Биз уруш ва фронт орти фахрийларини фақатгина байрамларда эмас, балки ҳар доим эъзозлаб ардоқлашимиз, уларнинг соғлиги ҳақида ҳар куни, ҳар соатда ўйлашимиз лозим. Жорий йилда уларга ҳар томонлама эътибор янада кучайтирилади.*

***Президент Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномасидан[1]***

***Аннотация.*** Мақолада иккинчи жаҳон уруши йилларида фронт ортидаги ўзбекистонликларнинг метин иродаси, машаққатли меҳнати ва буюк жасорати таҳлил этилган. Муаллиф томонидан тарихий воқеалар фактлар асосида ҳам қайд этилган. Ғалабанинг 75 йиллигининг ташкил этиши ва муносиб ўтказишига оид ҳуқуқий асослар келтирилган.

***Калит сўзлар:*** фронт, эвакуация, ўзбек, оила, ватан, жасорат, ғалаба